



«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b.:
O.Voxidov

«20» aprel 2026 y.
№ 338

Texnik topshiriq

“Sun’iy intellekt (SI) transformatsiyasi bo‘yicha strategik sessiya o‘tkazish”

Toshkent 2026

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Ma'lumotlar va talablar mazmuni
1	Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank)
2	Manzil	100011, Toshkent sh., A. Navoiy ko‘chasi, 18-A
3	Ko‘rsatiladigan xizmat nomi	Sun'iy intellekt transformatsiyasi bo'yicha strategik sessiya va kompleks o'quv-amaliy dastur
4	Tanlovni o'tkazish uchun asos	<ul style="list-style-type: none"> - O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-“Davlat xaridlari to‘g‘risida“gi 684-sonli Qonuni; - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli Qarori; - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdaagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-259-sonli Farmoni; - Bank boshqaruvining 2025-yil 11-dekabrdaagi 155/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish” tartibi.
5	Moliyalashtirish - manbai	“Biznesni rivojlantirish banki“ ATBning o‘z mablag‘lari
6	Ijrochiga qo‘yiladigan talablar	<ul style="list-style-type: none"> - Xizmatlarning yuqori sifatda, belgilangan muddatlarda va to‘liq hajmda bajarilishi; - Strategik sessiya va o‘quv dasturi doirasida Bank rahbariyatiga aniq, tizimli va amaliy natijalarga yo‘naltirilgan materiallar taqdim etilishi; - Bankning strategik maqsadlari va transformatsiya ustuvor yo‘nalishlarini inobatga olgan holda ishlash; - Ijrochiga bog‘liq bo‘lmagan va xizmat ko‘rsatishga

		<p>to‘sqinlik qiluvchi holatlar yuzaga kelganda Buyurtmachini zudlik bilan xabardor qilish;</p> <ul style="list-style-type: none"> - Bankka tegishli ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlash (ommaviy ochiq ma’lumotlar bundan mustasno); - Mintaqaviy kontekstni bilish: MDH davlatlari banklari bilan ishlash tajribasi; - Sun’iy intellekt, raqamli transformatsiya va bank sohasida strategik loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha amaliy tajriba mavjudligi; - Top-menejment darajasida strategik sessiyalar va fasilitatsiya o‘tkazish tajribasi.
7	Ijrochi tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat mazmuni	<p>Buyurtmachining 30 nafar rahbar va xodimlari uchun sun’iy intellekt (SI) transformatsiyasi bo‘yicha strategik sessiya va kompleks o‘quv-amaliy dasturni o‘tkazish xizmatlari ko‘rsatiladi.</p> <p>Xizmatlar ikki bosqichdan iborat:</p> <p>1-bosqich. Strategik sessiyaga tayyorgarlik (2–3 hafta oldin)</p> <p>Ijrochi Bankning joriy holatini tahlil qilish va strategik sessiyaga tayyorgarlik ko‘rish doirasida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - strategik sessiyaning ishtirokchilari bilan intervyular o‘tkazish; - Bankda mavjud sun’iy intellekt tashabbuslari va raqamli loyihalar bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish; - Bank xodimlari o‘rtasida SI tashabbuslarini joriy etishga tayyorgarlik darajasini baholash (so‘rovnoma, maturity assessment); - Bankning SI bo‘yicha yetuklik darajasini baholash (maturity model asosida); - strategik sessiya uchun tahliliy va taqdimot materiallarini tayyorlash. <p>Tayyorlangan materiallar tadbir boshlanishidan kamida 3 (uch) kalendar kun oldin Buyurtmachi bilan kelishiladi.</p> <p>2-bosqich. Strategik sessiyani o‘tkazish (3 kun)</p> <p>Strategik sessiya interaktiv, amaliy va qaror qabul qilishga</p>

		<p>yo‘naltirilgan formatda tashkil etiladi.</p> <p>Dastur quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi kerak:</p> <p>1-kun. SI bo‘yicha bilimlarni shakllantirish va amaliy ko‘nikmalar</p> <p>2-kun. Bankning joriy holati va ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash</p> <p>3-kun. Strategik tashabbuslar va harakatlar rejasini shakllantirish</p> <p>Strategik sessiya yakunlariga ko‘ra, Ijrochi 20 ish kuni ichida Bank rahbariyati uchun hisobot va taqdimot materiallari, tanlangan tashabbuslar bo‘yicha qo‘shimcha tavsiyalar hamda texnik topshiriqning 2-ilovasida nazarda tutilgan natijalarni taqdim etadi.</p> <p>Qo‘shimcha shartlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Strategik sessiya rejasi 1-ilovada keltiriladi. - Asosiy natijalar 2-ilovada bayon etiladi. - Dastur interaktiv, amaliy va muhokamaga yo‘naltirilgan formatda tashkil etilishi lozim.
8	Buyurtmachining majburiyatlari	<ul style="list-style-type: none"> - Ijrochiga shartnomani bajarish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va materiallarni o‘z vaqtida taqdim etish; - Ijrochi xizmatlarini qabul qilish va shartnomaga muvofiq to‘lovni amalga oshirish; - Sessiya o‘tkazish uchun (50 nafargacha ishtirokchi) xonalarni taqdim etish, guruhlariga ajratish imkoniyati bilan; - Zarur texnik ta‘minotni ta‘minlash, jumladan: <ul style="list-style-type: none"> - proyektorlar va taqdimot vositalari; - guruhlar bilan ishlash uchun mos infratuzilma; - sarf materiallari, kantselyariya, flipchartlar va bloknotlar (to‘liq ro‘yxat 1-bosqich natijalari asosida kelishiladi); - Amaliy mashg‘ulotlar uchun yetarli miqdorda ishchi stansiyalar (kompyuterlar) bilan ta‘minlash; - Strategik sessiyada ishtirok etuvchi rahbarlar va mas‘ul

		<p>xodimlarning ishtirokini ta'minlash;</p> <ul style="list-style-type: none"> - Maydonni tashkil etish, ishtirokchilarni yig'ish, kofe-breyklar va tushlikni tashkil etish.
9	To'lov shartlari	<ul style="list-style-type: none"> - Shartnoma imzolangan kundan boshlab 5 bank kuni ichida xizmatlar qiymatining 50% miqdorida avans to'lovi Ijrochining hisob raqamiga o'tkaziladi; - Qolgan 50% miqdoridagi to'lov xizmatlar to'liq hajmda bajarilib, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 5 bank kuni ichida to'lanadi; - Xizmatlar hajmi yoki mazmuni o'zgargan taqdirda, ularning qiymati tomonlar o'rtasida qo'shimcha kelishuv orqali belgilanadi.
10	Xizmat ko'rsatish muddati	Shartnoma imzolangan kunda boshlab 60 ish kuni.

1-ilova.

Strategik sessiya o‘tkazish rejasi

Umumiy shartlar.

Strategik sessiya formati: Buyurtmachi hududida, interaktiv va amaliy;

Davomiyligi: 3 ish kuni (aniq sanalar tayyorgarlik jarayonida kelishiladi);

Ishtirokchilar: 30 nafargacha – Bank Boshqaruvi Raisi o‘rinbosarlari va departament rahbarlari;

Ishtirokchilar tarkibi 1-bosqich boshlanishidan oldin tasdiqlanadi, o‘zgarishlar sessiyadan kamida 5 ish kuni oldin kiritilishi mumkin;

O‘tkazish tili: rus tili;

O‘tkazish joyi: Buyurtmachi ofisi yoki taqdim etilgan bino.

1-kun. SI bo‘yicha bilimlarni shakllantirish va amaliy ko‘nikmalar

Maqsad: ishtirokchilarda SI imkoniyatlari va amaliy vositalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Kun tartibi:

- Bank rahbariyatining kirish so‘zi;
- Nazariy blok: sun‘iy intellekt asoslari, bank jarayonlarida qo‘llanilishi, xalqaro va mintaqaviy banklar tajribasi;
- Amaliy blok: ishtirokchilarning zamonaviy SI vositalari bilan ishlashi va real bank jarayonlariga mos ssenariylar asosida mashg‘ulotlar.

Kutilayotgan natija: Strategik sessiya ishtirokchilari sun‘iy intellekt (SI) asoslarini tushunadi va amaliy vositalar bilan ishlash bo‘yicha tajribaga ega bo‘ladi.

2-kun. Bankning joriy holati va ustuvor yo‘nalishlarni aniqlash

Maqsad: Bankning SI bo‘yicha joriy holatini baholash va ustuvor rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash.

Kun tartibi:

- Bankning SI bo‘yicha yetuklik darajasi (maturity assessment) natijalarini taqdim etish;
- Sohaviy (bank) keyslar va eng yaxshi amaliyotlar tahlili;
- SI qo‘llash uchun potensial foydalanish holatlarini (use-case) shakllantirish;

- Guruhli ish orqali foydalanish holatlarini baholash va ustuvor yoʻnalishlarni tanlash (prioritizatsiya).

Kutilayotgan natija: ustuvor SI tashabbuslari aniqlanadi va dastlabki prioritizatsiya amalga oshiriladi.

3-kun. Strategik tashabbuslar va harakatlar rejasini shakllantirish

Maqsad: tanlangan SI yoʻnalishlari boʻyicha ustuvor tashabbuslarni aniqlash va ularni amalga oshirish boʻyicha yuqori darajadagi reja ishlab chiqish.

Mazmuni:

- Tanlangan yoʻnalishlar asosida TOP-5 strategik SI tashabbuslarni aniqlash;
- Har bir tashabbus boʻyicha asosiy maqsadlar, kutilayotgan biznes samarasi va amalga oshirish bosqichlarini belgilash;
- Resurslar va hamkorlarni muhokama qilish (build / buy / partner yondashuvi);
- SI rivojlanish istiqbollari koʻrib chiqish;
- Masʼullar va muddatlar bilan reja ishlab chiqish.

Kutilayotgan natija: Bankning SI rivojlanishi boʻyicha yuqori darajadagi strategik reja shakllantiriladi va keyingi amaliy qadamlar belgilanadi.

Ish natijalari tavsifi

№	Ishlar tavsifi	Natija
1	Strategik sessiyaning asosiy ishtirokchilari bilan intervyular o'tkazish, mavjud sun'iy intellekt (SI) tashabbuslari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, Bank xodimlari o'rtasida SI tashabbuslarini joriy etishga tayyorgarlik darajasini baholash maqsadida so'rovnoma o'tkazish	Bankning sun'iy intellekt (SI) bo'yicha joriy holati va tayyorgarlik darajasini aks ettiruvchi analitik hisobot, jumladan: - SI yetuklik darajasi (maturity assessment); - mavjud tashabbuslar va imkoniyatlar tahlili; - asosiy cheklovlar va rivojlanish nuqtalari
2	Strategik sessiya uchun materiallarni tayyorlash	3 kunlik strategik sessiyani o'tkazish uchun Buyurtmachi bilan kelishilgan dastur, taqdimot materiallari va ishchi vositalar (workshop materiallari)
3	Strategik sessiya yakunlari bo'yicha materiallarni tayyorlash	1. Qarorlar bayonnomasi: - strategik sessiya davomida qabul qilingan asosiy qarorlar. 2. Bank rahbariyati uchun yakuniy hisobot (taqdimot shaklida): - Bank uchun SI rivojlanishining asosiy strategik yo'nalishlari; - ustuvor SI use-case'lar ro'yxati; - TOP-5 ustuvor tashabbuslar; - har bir tashabbus bo'yicha kutilayotgan biznes samarasi; - yuqori darajadagi yo'l xaritasi; - amalga oshirish yondashuvi (build / buy / partner); - keyingi qadamlar va mas'ullar. Hisobot pptx formatda, 10 slayddan oshmagan holda taqdim etiladi.

kelishuvchilar: X.Abduraximov, Z.Orifkhojayev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=sY51nA48&id=fb3b2aa4-23bf-4084-b984-e75ea50868b9>